



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Abduraxmon Abduxalimov YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
2. Омонулло Бўриев СОҶИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
3. Хайрия Буриева ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
4. Nodira Babadjanova DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir, OROL DENGIZINING PAYDO BO’LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
6. Дорошенко Татьяна ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО ХХВВ.).....	42
7. Axmedov Baxriddin O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
8. Akbarova Nigora FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
9. Nurmetov Ismoil O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
10. Зарипов Жахонгир ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ ХХ ВЕКА.....	71
11. Polvanov Azim TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
12. Choriyeva Nargiza O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84



Axmedov Baxriddin Hoshimovich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

**O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI:
TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–
2016 yillar misolida)**

For citation: Bakhridin Kh. Akhmedov. THE INSTITUTION OF MILITARY JUDGES IN UZBEKISTAN: APPOINTMENT, PROFESSIONAL DEVELOPMENT, AND CERTIFICATION PROCESSES (On the example of the years 2001–2016). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498739>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 2001–2016 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasidagi harbiy sudlar faoliyati, sudyalarni tayinlash, ularning malakasini oshirish va attestatsiya jarayonlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada sudyalarning intizomiy javobgarligi, sudyalik lavozimlaridagi vakansiyalar, rag‘batlantirish tizimi hamda kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishdagi muammolar keng qamrovli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy sudlar, sudyalar, malaka hay’ati, zaxira kadrlar, sudyalarni tayinlash, vakansiyalar, rag‘batlantirish, intizomiy javobgarlik, amaliyot.

Ахмедов Бахриддин Хошимович
Исследователь Каршинского государственного университета

**ИНСТИТУТ ВОЕННЫХ СУДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЗНАЧЕНИЕ,
ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ И АТТЕСТАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ (на примере
2001–2016 годов)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье системно анализируется деятельность военных судов Республики Узбекистан в 2001–2016 годах, процессы назначения судей, повышения их квалификации и проведения аттестации. Кроме того, в статье всесторонне освещаются вопросы дисциплинарной ответственности судей, наличия вакантных судейских должностей, системы поощрения, а также проблемы подготовки кадров и повышения их профессиональной квалификации.

Ключевые слова: военные суды, судьи, квалификационная коллегия, кадровый резерв, назначение судей, вакансии, поощрение, дисциплинарная ответственность, практика.

Bakhriddin Kh. Akhmedov
Researcher at Karshi State University

**THE INSTITUTION OF MILITARY JUDGES IN UZBEKISTAN:
APPOINTMENT, PROFESSIONAL DEVELOPMENT, AND CERTIFICATION
PROCESSES (On the example of the years 2001–2016)**

ABSTRACT

This article provides a systematic analysis of the activities of military courts in the Republic of Uzbekistan during 2001–2016, focusing on the appointment of judges, their professional development, and certification processes. The article also comprehensively examines issues related to judges' disciplinary liability, vacancies in judicial positions, the incentive system, as well as problems in personnel training and professional development.

Index Terms: military courts, judges, qualification board, personnel reserve, appointment of judges, vacancies, incentives, disciplinary liability, practice.

1. Dolzarbligi.

Hozirgi globallashuv va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish sharoitida sud-huquq tizimini takomillashtirish masalasi har bir demokratik davlat uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy sudlar faoliyatining samaradorligi, ularda ish yurituvchi sudyalarning institutining shakllanishi, tayinlanish tartibi, kasbiy malakasini oshirish hamda attestatsiya jarayonlarining ilmiy jihatdan tahlil qilinishi huquqiy davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, 2001–2016 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida harbiy sudyalarning institutining rivojlanish bosqichlarini o'rganish mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlarni xolisona baholash imkonini beradi.

Mazkur davr harbiy sudlar tizimida institutsional o'zgarishlar, sudyalarning korpusini shakllantirish, kadrlar zaxirasini yaratish hamda ularning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar takomillashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Biroq amaliyotda tayinlash jarayonlari, vakant lavozimlar, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik masalalari bilan bog'liq muayyan muammolar mavjud bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola harbiy sudyalarning instituti faoliyatini tizimli tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va kelgusida sud-huquq islohotlarini yanada samarali amalga oshirish uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishda dolzarb hisoblanadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida 2001–2016 yillar davomida harbiy sudyalarning institutining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Xususan, tadqiqot jarayonida tarixiylik va tizimlilik prinsiplariga tayanildi hamda harbiy sudlar faoliyatini huquqiy, institutsional va tashkiliy jihatdan tahlil qilish maqsad qilindi. Bu orqali sudyalarni tayinlash, malaka oshirish va attestatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi hamda rivojlanish dinamikasi ochib berildi. Tadqiqotda tahliliy-taqqoslama, mantiqiy, shuningdek, statistik usullardan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali harbiy sudyalarning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar va idoraviy hujjatlar o'rganildi. Shu bilan birga, arxiv manbalari tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

3. Tadqiqot natijalari.

XXI asr boshlariga kelib O'zbekiston Respublikasida harbiy sudlarni institutsional jihatdan shakllantirish, ularni lavozimga tayinlash mexanizmlarini takomillashtirish, attestatsiya jarayonlarini tizimlashtirish hamda kasbiy malakasini muntazam oshirib borish masalalari davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Harbiy sudyalarning kasbiy kompetensiyasi va huquqiy bilim darajasi harbiy xizmat sohasida qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda adolatli sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001- yil 24 sentabrdagi PF–2943-sonli farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom yangi tahrirda tasdiqlandi[1]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatga muvofiq, Komissiya zimmasiga sud hokimiyati faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlari, viloyatlar hamda Toshkent shahar xo‘jalik sudlari sudyalarini tanlash va lavozimlarga tavsiya etish, shuningdek viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari hamda harbiy sudlar sudyalarini lavozimlarga taqdim etish vakolatlari yuklatildi.

Shu bilan birga, Komissiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kadrlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan farmon va farmoyishlari hamda mazkur Nizom asosida, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi tamoyillariga qat‘iy rioya etgan holda olib borishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001- yil 7- dekabrdagi 323-II-sonli qarori bilan “Sudyalarning malaka hay‘atlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi[2]. Mazkur Nizomga muvofiq, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay‘atlari tegishli okrug va hududiy harbiy sudlar hamda yuqori instansiya sudlari sudyalari orasidan besh yil muddatga saylanishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasining vakolatlari doirasida sudyalar malaka hay‘atlari raislarining sudya kadrlar bilan ishlash holati to‘g‘risidagi hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borishi nazarda tutilgan bo‘lib, bu holat sudya kadrlarini tanlash, baholash va nazorat qilish mexanizmlarining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Harbiy sudlar sudyalarining malaka hay‘atlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasiga taqdim etish uchun sudyalarni tanlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish vakolati berildi. Shu bilan birga, mazkur hay‘atlarga sudyalik lavozimiga nomzodlarning ushbu lavozimlarda faoliyat yuritishga kasbiy va axloqiy jihatdan tayyorgarlik darajasini baholash, sudyalarni belgilangan tartibda vaqti-vaqti bilan malaka attestatsiyasidan o‘tkazish vazifalari yuklatildi.

Bundan tashqari, malaka hay‘atlari sudyalarni ma‘muriy javobgarlikka tortishga rozilik berish masalasini ko‘rib chiqish, sudyalarning intizomiy javobgarligi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish, sudyalarning vakolatlarni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilish yoki ularning vakolatlarni muddatidan ilgari tugatish masalasi yuzasidan xulosa berish huquqiga ega etib belgilandi. Shuningdek, sudyalar zaxirasini shakllantirish, sudyalik lavozimlariga zaxirada turgan shaxslarni belgilangan tartibda tayyorlash va o‘qitishni tashkil etish, xalq maslahatchilarini tanlash va ularning saylovini o‘tkazish hamda malakasini oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonlarini tashkil etish ham mazkur hay‘atlarning asosiy vazifalari sifatida belgilab qo‘yildi.

2001- yilga qadar harbiy sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va jalb etish, shuningdek ariza bergan shaxslardan malaka imtihonlarini qabul qilish hamda imtihon natijalariga ko‘ra munosib nomzodlarni sudyalik lavozimlari uchun zaxiraga kiritish jarayonlarida qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular o‘z yechimini topmagan edi. Xususan, harbiy sudlar sudyalari korpusini to‘ldirishda kadrlar yetishmovchiligi va nomzodlar zaxirasining yetarli darajada shakllanmaganligi holatlari kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasi tomonidan 2002- yil 8-yanvar holatiga harbiy sudyalik lavozimlariga nomzodlar zaxirasining shakllantirish holati o‘rganilganda, mavjud 42 nafar harbiy sudyalik shtatidan 20 tasi vakant, ya‘ni bo‘sh turgani aniqlangan bo‘lib, mazkur holat harbiy sudlar faoliyatining barqarorligini ta‘minlashda kadrlar masalasining dolzarbligini yaqqol namoyon etar edi[3].

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari sudyalari malaka hay‘ati tomonidan okrug va hududiy harbiy sudlar sudyaligi lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantirish maqsadida 2001-

yilda 10 nafar, 2002- yilda 36 nafar[4] hamda 2003- yilda 35 nafar nomzod[5] sudyalik lavozimlari uchun zaxiraga qabul qilingan. Shu bilan birga, malaka imtihonlarini ijobiy topshirgan nomzodlar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoyishlari asosida sudyalik lavozimlariga tayinlash jarayoni amalga oshirildi. Xususan, 2001–2002 yillarda jami 10 nafar nomzod, 2003- yilda 6 nafar nomzod[6], 2004- yilda 11 nafar nomzod[7], 2005- yilda 2 nafar nomzod[8] hamda 2006 yilda 3 nafar nomzod[9] ilk marotaba yoki navbatdagi muddatlarga O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar sudyaligi lavozimlariga tayinlangan. Mazkur ko'rsatkichlar harbiy sudlar sudya kadrlarini shakllantirish jarayonida bosqichma-bosqich ijobiy siljishlar yuz berganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2001- yildan 2006- yil avgust oyigacha jami 17 nafar nomzod harbiy sudyalik lavozimlari uchun nomzodlar zaxirasidan chiqarilgan[10]. Malaka hay'ati tomonidan nomzodlarni zaxiradan chiqarish qarorlari ularning sudyalik lavozimlariga tayinlanishi, ish faoliyatidan bo'shatilishi yoki boshqa lavozimga o'tishi, jinoiy javobgarlikka tortilishi yoki vafot etishi kabi sabablar asosida qabul qilingan. Masalan, harbiy sudyalik zaxirasiga kiritilgan nomzodlardan adliya mayori S.Mamutov bevaqt vafot etganligi sababli zaxiradan chiqarilgan. Shuningdek, adliya podpolkovniklari A.Abdualiev sog'ligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilib, zaxiraga o'tkazilgan. A.Pulatov esa o'z arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi lavozimidan ozod etilganligi munosabati bilan zaxira ro'yxatidan chiqarilgan[11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2006- yil 17- mart kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmon hamda unga ilova sifatida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to'g'risida"gi Nizom sud-huquq islohotlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sudyalar zaxirasini shakllantirish, nomzodlarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish jarayonlarida demokratik tamoyillarni mustahkamlash, sudyalik korpusining barqarorligini ta'minlash va Oliy malaka komissiyasining faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini tubdan takomillashtirishga xizmat qildi.

Yuqorida ta'kidlangan hujjatga asosan sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tavsiya etish masalalari Komissiya majlislarida ko'rib chiqilayotganda nomzodni taqdim etayotgan tegishli sudyalar malaka hay'atining raisi maslahat ovozi bilan ishtirok etishi majburiyligi belgilandi. Bundan tashqari, viloyat sudi raisi nomzodning nafaqat bilim va ishchanlik salohiyatini, balki uning ahloqiy-ma'naviy dunyoqarashi bilan ham yaqindan tanish bo'lishi talab etilar edi. Bu esa sud tizimiga vijdonli va axloqan pok nomzodlarni tayinlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Komissiya faoliyatini tashkiliy va moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida Komissiya kotibiyati tashkil etildi. Shuningdek, sudlarni halol va malakali kadrlar bilan ta'minlash, sudyalarni kasb burchi va xizmat odob-axloq me'yorlariga rioya qilishlarini nazorat qilish maqsadida Komissiya huzurida sud inspeksiyasi tashkil etildi.

Vakant o'rinlarni to'ldirish maqsadida 2007- yil avgust holatiga ko'ra, harbiy sudyalikka nomzodlar zaxirasi malaka hay'atiga ariza berib, malaka imtihonidan o'tgan 50 nafar shaxsdan iborat bo'lgan[12]. Shuningdek, 2007- yil davomida bo'sh harbiy sudyalik lavozimiga tavsiya etilgan nomzodlardan 18 nafari (60 %)ga Oliy malaka komissiyasi ijobiy xulosalar bergan bo'lib, ular harbiy sudyalik lavozimlariga tayinlangan; 7 nafari (23,3 %) zaxirada qoldirilgan va 5 nafari (16,7 %)ning hujjati qo'shimcha o'rganish uchun qaytarilgan[13].

Vakansiya ko'rsatkichlari bo'yicha, 2006- yilda 16 ta (38 %) harbiy sudyalik lavozimi, 2007- yilda esa 9 ta (21 %) lavozim vakant bo'lgan[14]. Keyingi yillarda harbiy sudyalik lavozimlariga tayinlash jarayonlari davom ettirilib, 2008- yilda 2 nafar[15], 2009- yilda 9 nafar[16], 2010- yilda 11 nafar[17], 2012- yilda 1 nafar[18], 2013- yilda 13 nafar va 2014- yilda 5 nafar nomzod[19] ilk marotaba yoki navbatdagi muddatlarga harbiy sudlar sudyaligi lavozimiga tayinlangan.

2012-yil 25-yanvar holatiga ko'ra, umumiy yurisdiksiya sudlarida jami 843 ta sudyalik lavozimi mavjud bo'lishi lozim bo'lgan bo'lsa-da, ularning 205 tasi (24,3%) vakant bo'lgan,

natijada 638 nafar sudya (75,7%) faoliyat olib borgan. Bo'sh lavozimlarning tarkibi quyidagicha bo'lgan: jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda 111 ta, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda 82 ta va harbiy sudlarda 9 ta sudyalik lavozimi[20].

Shu bilan birga, 2012-yil yakuni bo'yicha vakant harbiy sudyalik o'rinlarining ulushi 45,3 foizni tashkil qilgan[21]. Faqat 2014-yilga kelib, 42 nafar shtat birligidan 39 nafar harbiy sudya faoliyat yuritgan, natijada 3 nafar (7%) sudyalik lavozimi vakant bo'lgan. 2014-yildagi harbiy sudyalarning ish staji tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning 1 nafari (2,5%) 20–25 yil, 2 nafari (5%) 10–20 yil, 18 nafari (46%) 5–10 yil va yana 18 nafari (46%) esa 5 yilgacha sudyalik ish stajiga ega bo'lgan.

Sud kadrlarini, shuningdek harbiy sudyalikka nomzodlarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilim va ko'nikmalarini, kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida Respublika harbiy sudlari sudyalari, zaxiradagi nomzodlar hamda sud xodimlari har yili tasdiqlanib kelayotgan maxsus o'quv-rejalar asosida o'qitib borilgan. Sud sohasida ilgari ishlamagan zaxiradagi nomzodlar esa amaliyotini harbiy sudlarda o'tkazishgan. Shu bilan birga, zaxirada bo'lgan va ilk bor sudyalik lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzodlar uchun uch oylik maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish rejasiga muvofiq, ularni Respublika Yuristlar malakasini oshirish markazida o'qitish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi 1997 yilda tashkil etilgan bo'lib, ushbu markazda adliya, sud, advokatura hamda hokimiyat idoralari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning yuridik xizmati xodimlari malakalarini oshirib borgan[33].

2001–2007 yillarda mazkur markazda har yili bir yarim mingga yaqin davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqshunos xodimlari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qitilgan. Malaka oshirish jarayonida ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha uchrashuvlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etgan.

Harbiy sudyalar, harbiy sudyalik lavozimiga nomzodlar hamda harbiy sud apparati xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha Respublika Yuristlar malakasini oshirish markazida o'quv ishlari muntazam tashkil etib borilgan. Jumladan, 2004 yilda 2 nafar harbiy sudya, 2 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 4 nafar sud apparati xodimi o'z malakalarini oshirgan[23] bo'lsa, 2005 yilda 5 nafar harbiy sudya, 1 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 2 nafar sud apparati xodimi[24] ushbu kurslarda qatnashib, kasbiy tayyorgarlik darajalarini oshirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida" va 2005- yil 8- avgustdagi "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi farmonlarini amaliyotda qo'llashni o'rganish maqsadida, 2007 yilda 20 nafar sudya va 2008- yilda barcha harbiy sudyalar Respublika Yuristlar malakasini oshirish markazida o'qitildilar. Shu bilan birga, 2007- yilda 3 nafar va 2008 yilda 7 nafar harbiy sudyalikka nomzod uch oylik maxsus kurslarda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirdilar[25]. 2008- yilda 1 nafar harbiy sudya, 15 nafar sudyalikka nomzod va 3 nafar sud apparati xodimi mazkur markazda malaka oshirdi[26].

2009-yilda 3 nafar harbiy sudya, 5 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 4 nafar sud apparati xodimi, 2010- yilda esa 2 nafar harbiy sudya, 4 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 3 nafar sud apparati xodimi markazda malaka oshirdi[27]. Ushbu yil, ilk bor sudyalikka tayinlangan yosh sudyalarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida 7 nafar harbiy sudya O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o'tadi[28].

2012-yilda 1 nafar harbiy sudya, 4 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 1 nafar sud apparati xodimi markazda malaka oshirdi. Shu bilan birga, 3 nafar harbiy sudya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida, 2 nafar harbiy sudya esa O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o'tkazdilar[29].

2013-yilda 3 nafar harbiy sudya markazda malaka oshirgan bo'lsa, 11 nafar harbiy sudya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida va 24 nafar harbiy sudyalikka nomzod O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o'tkazdilar[30].

Umumiy yurisdiksiya sudlarida kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish va sudyalik qasamyodiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida, 2007-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning kadrlar bilan ishlash faoliyati qoniqarli emas deb topildi. Plenum sudya kadrlarning huquqiy bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy-siyosiy xabardorligini oshirish, sudyalarning malaka hay'atlariga ishlarni ko'rib chiqishni kuchaytirish, fuqarolar shikoyatlarini belgilangan muddatlarda hal etmaslik, sansalorlik qilish, sud protsessi ishtirokchilarini asossiz chaqirish va sudning obro'yiga putur yetkazuvchi boshqa harakatlarni amalga oshirgan shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash zarurligini ta'kidlandi. Shuningdek, Plenum sudyalarning kasbiy, ma'naviy va shaxsiy sifatlarini baholashda prinsipial yondashish, xizmat vazifalarini noto'g'ri bajarish bo'yicha kelib tushgan va o'z tasdig'ini topgan shikoyatlar yuzasidan sudyalarga nisbatan qat'iy choralar qo'llashni tavsiya qildi[31].

Harbiy sudlarda ham qat'iy intizom joriy etilgan bo'lib, har qanday qonunbuzilish holatlariga murosasiz munosabat shakllantirilgan edi. Shu ma'noda, 2001–2016-yillarda harbiy sudyalarning intizomiy javobgarlikka tortilish holatlari rasmiy ma'lumotlarga muvofiq qayd etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi malaka hay'atlarining qarorlari bilan 2002- yilda 1 nafar, 2003- yilda 3 nafar, 2004- yilda 2 nafar[32], 2005- yilda 2 nafar, 2007- yilda 1 nafar[33] harbiy sudya intizomiy javobgarlikka tortilgan.

2001–2005 yillar hamda 2006- yilning 9 oyi mobaynida harbiy sudyalarning xatti-harakatlari yuzasidan jami beshta shikoyat kelib tushgan. Keltirilgan har bir shikoyat amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq dastlabki xizmat tekshiruvidan o'tkazilgan. Malaka hay'atida ushbu davr mobaynida sudyalarning xatti-harakatlaridan norozi bo'lgan fuqarolar tomonidan keltirilgan shikoyatlar tasnifi, mazmuni va xizmat tekshiruvi jarayonida aniqlangan holatlar alohida muhokama qilingan. Arizachilarning barcha keltirgan vajlari tekshirilib, ularga asoslantirilgan javoblar berilgan[34].

2007- yilda 3 nafar sudyaning hatti-harakatlariga nisbatan fuqarolar tomonidan shikoyatlar kelib tushgan. Ushbu shikoyatlarning 2 tasi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq "anonim" deb topilib ko'rmasdan qoldirilgan, qolgan 1 ta shikoyat esa o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida o'z tasdig'ini topmagan deb hisoblangan.

2008- yilda 1 nafar harbiy sudyaning faoliyati yuzasidan shikoyat kelib tushgan bo'lib, keltirilgan vajlar O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining Rayosatida muhokama qilingan va xizmat tekshiruvi jarayonida tasdiqlanmagan. Shu bilan birga, ishlarni yuqori instansiyada ko'rish jarayonida birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan ishni ko'rgan harbiy sudyalarga nisbatan xususiy ajrim chiqarish orqali munosabat bildirib borilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudlov hay'ati tomonidan 2004- yil 3 iyun kuni Navoiy harbiy sudining raisiga va shu yilning 24 iyun kuni Termiz harbiy sudining raisiga nisbatan xususiy ajrimlar chiqarilgan[35]. Ushbu xususiy ajrimlar O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi Rayosatining kengaytirilgan majlisida muhokama qilingan va jinoyat ishlarini ko'rishda protsessual xatoliklarga yo'l qo'ygan harbiy sudyalarga nisbatan tegishli intizomiy choralar ko'rilgan[36]. Shu bilan birga, 2007 yilda 1 nafar va 2008- yilda 3 nafar harbiy sudyaga nisbatan xususiy ajrimlar chiqarilgan[37].

2009- yil iyun oyidan 2010-yil avgust oyigacha bo'lgan davrda 5 nafar[38], 2012 yilda esa 9 nafar harbiy sudya odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlamaganligi, mehnat va ijro intizomiga rioya qilmaganligi hamda sudyalik nizomiga zid xatti-harakatlar sodir etganligi sababli lavozimidan ozod qilingan[39].

2001–2016 yillar davomida harbiy sudyalarning rejaga muvofiq malaka attestatsiyasidan o'tkazilib, ularga tegishli malaka darajalari berish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, 2002- yilda 11 nafar, 2003- yilda 14 nafar harbiy sudya malaka attestatsiyasidan o'tkazilgan. 2005- yilda 7 nafar harbiy sudya rejaga binoan davriy attestatsiyadan o'tkazilib, navbatdagi malaka darajasi berish uchun tavsiya etilgan[40].

2007- yilda esa 21 nafar harbiy sudya attestatsiyadan o'tkazilib, shulardan 9 nafari malaka darajasi berish uchun tavsiya etilgan. Tavsiya etilganlardan 8 nafariga navbatdagi malaka darajasi berilgan, 1 nafar esa o'zining mavjud malaka darajasida qoldirilgan[41].

2008–2016 yillarda esa jami 58 nafar harbiy sudya attestatsiyadan o'tkazilib, ulardan 43 nafari navbatdagi malaka darajalari berilishi uchun tavsiya etilgan. Tavsiya etilgan sudyalardan 30 nafariga navbatdagi malaka darajalari berilgan.

2001–2016 yillarda harbiy sudlar sud-huquq va harbiy sohadagi islohotlar bilan hamohang tarzda faoliyat olib borib, sezilarli yutuqlarga erishgan. Ushbu yutuqlar, ayniqsa, harbiy sohada jinoyatchilik darajasining yildan-yilga kamayishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, o'z kasbiy faoliyatida samarali mehnat qilgan va muvaffaqiyatlarga erishgan harbiy sudyalardan muntazam ravishda rag'batlantirib kelindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, 2004-yilda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi adliya polkovniki T.Q.Mirzaevga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist" unvoni berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga binoan, 2001–2016 yillar davomida jami 22 nafar harbiy sudya O'zbekiston Respublikasining yuqori davlat mukofotlari, orden va medallari bilan taqdirlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalari I.S. Yermanov va F.A. Qayumovlar "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Harbiy sud raislari va sudyalardan Q.Dj.Botirov, X.N.Qudratov, O.A.Meliev, M.M.Mirraximov, X.S.Egamberdievlar "Sodiq xizmatlari uchun" medali, Q.O.Eshonqulov, B.B.Yaxyoev, N.A.Tojiboev, R.O.Obidov, B.Maxmudov, T.T.Raxmatov, R.U.Abdullaev, N.N.G'afurov, S.A.Umarov, S.Q.Orziev, B.R.Inoyatov, B.U.Normamatov, S.B.Eshankulov, A.K.Bobonazarovlar "Shuhrat" medali bilan taqdirlanishgan. Ushbu mukofotlash tizimi harbiy sudyalarning kasbiy faoliyatini rag'batlantirish, ularning sud tizimidagi samarali ish faoliyatini ta'minlash va yuksak professional natijalarga erishishini rag'batlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbir sifatida amalga oshirilgan.

2001–2016 yillar davomida harbiy sudlarni malakali kadrlar bilan ta'minlashda bir qator jiddiy muammolar kuzatilgan. Asosiy salbiy omillardan biri mamlakatda harbiy huquqshunoslarni tayyorlovchi maxsus oliy ta'lim muassasasining yo'qligi bo'lib, bu holat harbiy sud tizimida kadrlar yetishmovchiligiga olib kelgan.

4.Xulosa qilib aytganda, 2001–2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi harbiy sud tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilib, harbiy sudyalarning tayinlanishi, malaka attestatsiyasi, kasbiy rivojlanishi va intizomiy javobgarligi bo'yicha institutsional mexanizmlar mustahkamlandi. Bu jarayonlar harbiy sud tizimining adolatli sudlovni amalga oshirishini va jinoyatchilik darajasining kamayishini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tizimda ba'zi salbiy jihatlardan ham mavjud bo'ldi. Jumladan, maxsus oliy ta'lim muassasasining yo'qligi harbiy huquqshunoslarni yetarli darajada tayyorlashni qiyinlashtirdi, natijada kadrlar yetishmovchiligi yuzaga keldi. Ba'zi davrlarda sudyalik lavozimlari bo'sh qolgan, nomzodlarning malaka va amaliy tayyorgarligi yetarli darajada bo'lmagan holatlar kuzatildi. Bundan tashqari, sudyalarning intizomiy javobgarligi bo'yicha tushuntirish va nazorat ishlari doimiy takomillashuvni talab qildi. Shu sababli, harbiy sud tizimida erishilgan yutuqlar bilan birga, malaka va kadrlar tayyorlashning yetishmovchiligi tizimning samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilgan.

Iqtiboslar / Snoski / References

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 24 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi PF–2943-sonli farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-180179> [Decree No. PF–2943 of the President of the Republic of Uzbekistan dated 24 September 2001

“On the Supreme Qualification Commission for the Selection of Judges and Recommendation for Appointment under the President of the Republic of Uzbekistan”].

2.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 7 dekabrda “Sudyalarning malaka hay’atlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 323-II-sonli Qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-300090> [Resolution No. 323-II of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dated 7 December 2001 “On Approval of the Regulation on the Qualification Boards of Judges”].

3.O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi, 2001-2002 yillardagi O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish komissiyasi bilan yozishmalar yig‘majildi, 2001-2002 yillar, 55-varaq. [Current Archive of the Military Court of the Republic of Uzbekistan, Correspondence Collection with the Commission for the Selection and Recommendation of Judges under the President of the Republic of Uzbekistan, 2001–2002, 55 pages].

4.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2003-yil, 48- varaq. [Materials of the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2003, 48 pages].

5.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2004 yil, 68-varaq. [Materials of the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2004, 68 pages].

6.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2004 yil, 68-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2004, 68 pages].

7.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2005 yil, 31-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2005, 31 pages].

8.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2006 yil, 34-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2006, 34 pages].

9.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2007 yil, 1-jild, 119-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2007, Volume 1, 119 pages].

10.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2006 yil, 251-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2006, 251 pages].

11.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2005 yil, 225-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2005, 225 pages].

12.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2007 yil, 224-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2007, 224 pages].

13.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2008 yil, 32-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2008, 32 pages].

14.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2007 yil, 224-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2007, 224 pages].

15.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2009 yil, 51-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2009, 51 pages].

16.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2010 yil, 62-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2010, 62 pages].

17.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2011 yil, 92-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2011, 92 pages].

18.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2012 yil, 245-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2012, 245 pages].

19.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2014 yil, 48-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2014, 48 pages].

20.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi joriy arxivi materiallari, Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalari Oliy malaka hay‘ati majlislarining kun tartibi va bayonnomalari yig‘majildi, 2012-yil, 21-varaq. [Materials from the Current Archive of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, Collection of Agendas and Minutes of the Meetings of the Supreme Qualification Board of Judges of General Jurisdiction Courts, 2012, 21 pages].

21.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2012 yil, 431-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2012, 431 pages].

22.Hayitov A., Qodirov H. O‘zaro hamkorlik-yuristlar markazida // Huquqshunos. – Toshkent, 2008. – № 4. –B.23. [Hayitov, A., & Qodirov, H. (2008). Cooperation at the Lawyers’ Center. Huquqshunos, (4), 23. Tashkent].

23.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2005 yil, 30-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2005, 30 pages].

24.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2006 yil, 34-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2006, 34 pages].

25.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2008 yil, 32-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2008, 32 pages].

26.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2009 yil, 1-jild, 51-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2009, Volume 1, 51 pages].

27.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2010 yil, 1-jild, 62-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2010, Volume 1, 62 pages].

28.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2011 yil, 92-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2011, 92 pages].

29.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2012 yil, 245-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2012, 245 pages].

30.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2014 yil, 48-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2014, 48 pages].

31.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori. Umumiy yurisdiksiya sudlarida kadrlar bilan ishlash holati va sudyalar tomonidan sudyalik qasamyodiga rioya etilishi masalalari to‘g‘risida. <https://lex.uz/uz/docs/1479950>[Decision No. 19 of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan “On the Issues of Personnel Management in General Jurisdiction Courts and Compliance with the Judicial Oath by Judges” dated 14 December 2007].

32.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2005 yil, 30-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2005, 30 pages].

33.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2006 yil, 1-jild, 286-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2006, Volume 1, 286 pages].

34.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2008 yil, 1-jild, 32-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2008, Volume 1, 32 pages].

35.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2009 yil, 51-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2009, 51 pages].

36.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2004 yil, 419-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2004, 419 pages].

37.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2009 yil, 51-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2009, 51 pages].

38.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2010 yil, 1-jild, 231-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2010, Volume 1, 231 pages].

39.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2012 yil, 431-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2012, 431 pages].

40.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2006 yil, 34-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2006, 34 pages].

41.Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar yig‘majildi, 2008 yil, 32-varaq. [Materials from the Current Archive of the Samarkand Military Court, Collection of Documents Related to Court Activities, 2008, 32 pages].

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, в алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].